

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҲА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ҮҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ilxomidin</i> “O’ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O’ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo’mnov Aziz</i> O’ZBEKİSTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO’YICHA TARG’IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoira Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To’xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allamberganovich</i> TASHQI SAVDO SALOHIYATINING MINTAQА IQTISODIYOTIDA TUTGAN O’RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuzा</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIB BORILISHI, MOHIYATI VA YO’NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO’YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

Donayev Sheroli Burxonovich

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT

STRATEGIYASINING AHAMIYATI 94-101

Kaxarov Jasur Abulkosimovich

ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ

МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 102-109

Rahmonov Shukhrat Shavkatovich

ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИННИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

110-117

Sherov Alisher Bakberganovich

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI 118-129

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna

МАHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIY-

AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI 130-135

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 136-145

Aripova Zulfiyaxon Saljanovna

HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY

AHAMIYATI 146-151

Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich

INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH

ZARURIYATI 152-156

Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich

AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK

VA HAMJIXATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI 157-162

Шоназаров Жамшид Шухратович

ЖАДИДЛАР ФОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ 163-168

Xo'janova Tamara Jo'raevna

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY

TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI 169-174

Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li

MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR

SIFATIDA QARASH 175-179

Muxtorova Tutixon

GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA

XOS JIHATLARI 180-186

Rahmonova Mavluda Abdusamadovna

ABDURAUF FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR

QARASHLARI TAHLILI 187-194

Pirnazarov Nurnazar

- TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING
FALSAFIY TAHЛИLI 195-201

Ismailov Dilshod Baxriddinovich

- DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI: KOMPARATIV YONDASHUV 202-209

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Yuldasheva Shaxnoza Azimboyevna

- RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI
TALQINI 210-216

Bozorbekov Ahmadbek

- O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI
TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI 217-230

Xamrayev Fozilbek Yo'lidoshevich

- ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA
MANBALARIDAN FOYDALANISH 231-236

O'tebaeva Dilbar

- TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR 237-242

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna

- EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI
("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) 243-247

Kadirova Zaynab Bakoyevna

- INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI 248-252

Allaberganova Nilufar Matnazar qizi

- QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI 253-256

Nabiyeva Rushana Jamol qizi

- OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY
GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA 257-262

To'rayeva Iroda Sheramatovna

- FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA
SPETSIFIKASI 263-268

Qodirova Munisa Erkinjon qizi

- BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI
(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) 269-272

G'aniyeva Nozanin G'ayratovna

- MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA
MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI 273-277

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna

- TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHЛИLI 278-284

Eshniyazova Maysara Beknazarovna

- ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY
IFODA MUKAMMALLIGI 285-292

Raxmonova Dildora Mirzakarimovna

- O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI 293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna</i>	
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH	
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI	299-306
<i>Узакова Гўзал Шариповна</i>	
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА	
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ХУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ	307-325
<i>Пулатова Нодирахон Собиржоновна</i>	
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ	
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА	326-332
<i>Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich</i>	
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI	
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH	333-341
<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В	
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ	342-345
<i>Bokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li</i>	
TA'LIM OLISH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI	346-356
<i>Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li</i>	
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI	357-368
<i>Утапов Фурқат</i>	
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ХУҚУҚИЙ	
МАҚОМИ	369-374
<i>Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li</i>	
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH	
TENDENSIYASI	375-381
<i>Назарова Марҳабо</i>	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В	
УЗБЕКИСТАНЕ	382-386
<i>Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич</i>	
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ	
МАСАЛАЛАРИ	387-400
<i>Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи</i>	
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ	
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ.....	401-406
<i>Abdikhakimov Islombok</i>	
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A	
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS	407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna</i>	
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK	
YONDASHUVLARNING ROLI	413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i>	
BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i>	
HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i>	
NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i>	
O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Таушулатович, Якубова Азада Ботировна</i>	
ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i>	
O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i>	
YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOIY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i>	
SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i>	
MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH	462-467

Received: 30 July 2024

Accepted: 5 August 2024

Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

INTERPRETATION OF EUROPEAN CULTURE IN UZBEK JADID LITERATURE

Rakhmonova Dildora Mirzakarimovna,

Doctor of Philosophy in Philology, Senior lecturer of the Uzbek language and literature department of Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the issue of the attitude to European culture in the literature of the jadid period. Why European culture is often mentioned by representatives of jadid literature, their achievements in the field of science are exemplified in their works, the goals and reasons for consideration from the issues of the eastern and European comparison are revealed on the example of poetic and prose works.

Keywords: jadid literature, European culture, enlightenment, Jadid poetry, Jadid drama, oppressed East, Avloni, Tawallo, 20th century.

O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI

Raxmonova Dildora Mirzakarimovna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid davri adabiyotida Ovrupo madaniyatiga munosabat masalasi tahlil etilgan. Ovrupo madaniyati nima uchun jadid adabiyotining vakillari tomonidan tez-tez tilga olinishi, asarlarida ularning ilm-fan sohasidagi yutuqlari namuna qilib ko'rsatilishi, Ko'hna Sharq va Ovrupo qiyosi masalalaridan ko'zlangan maqsad va sabablar she'riy va nasriy asarlar misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, Ovrupo madaniyati, ma'rifatparvarlik, jadid she'riyati, jadid dramasi, mazlum Sharq, Avloniy, Tavallo, XX asr.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N42>

Kirish. Dunyoda ko'pgina haqiqatlarga qiyos, solishtirish orqali erishiladi. Ibrat sifatida ko'rsatilganlarga ergashiladi, ulardan farq qiluvchi hodisalarining kamchiligi tahlil etiladi. XX asr boshida millatimiz hayotining g'oyaviy yetakchilari – jadidlar faoliyati ham bu oddiy hayotiy haqiqatdan yiroq emasdi. Istibdod va istiqlol, zulm vaadolat, jaholat va ma'rifat qiyoslari safida G'arb va Sharq masalasi ham o'rin olgan ediki, ko'p hollarda Ovrupo jadidlar uchun ilm-fan, madaniyat va taraqqiyot etaloni vazifasini o'tardi.

Jadid adiblari o'z asarlarida bot-bot Ovrupo hayotining turli qirralariga murojaat etar, Ovrupo ilm-fani, taraqqiyotiga intilish asosiy mavzuga aylangan edi. Tabiiyki, bundan qator maqsadlar ko'zlangan edi: avvalo, ularning madaniyatini o'rganish orqali tengma-teng millatlar kabi muloqotga kirishish, so'ngra, taraqqiyotiga sabab bo'lgan jihatlarni o'rganib, mustaqil bo'lishga ma'nан tayyorlanish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mavzuning ma'naviy ildizlari Ismoilbek Gaspralining 1885-yilda chop etilgan "Ovrupo madaniyatiga betarafona bir nazar" asariga borib taqaladi. Muallif Ovrupo hamisha ham namuna bo'la olmasligini, xususan, uning davlat boshqaruvi muqarrar tanazzulda ekanligi, buni tarix qayta-qayta isbotlaganini qayd etadi. Bu yerda axloq, insonga munosabat islomdagidek mukammal emasligini misollar orqali tushuntirib beradi. Uning qarashlari Ovruponi rad etish emas, aksincha, "yomondan to'g'ri xulosa qilish" tamoyiliga asoslanadi. Xo'sh, unda nega Ovrupo hayotiga nega intilish kerak? Muallif buni shunday izohlaydi: "Ovrupo bir keksa choldir, tajribasi ko'pdir, – deya tahlil qiladi muallif. – Ulug' yoshiga hurmatimiz bor. Tajribasidan o'rganamiz. Lekin xatolarini takrorlamaymiz. Maktabalarini, universitetlarini bizlar ham quramiz. Ammo aqllarimizni qancha yoritsak, yuraklarimizni ham shuncha "haqqoniyat" bilan to'ldirmoqqa harakat qilamiz. Ovrupoda nimani ko'rsak, yosh boladek olishga yugurmaymiz. Esli, hushli insonlardek: "Bu nimadir? Oqibati nima bo'ladi? Vijdon va haqqoniyatga uyg'unmi?" – deya aql tarozisiga tortib olamiz... Yana bir takrorlayman: yangi fanlarini, kashfiyotlarini va ijodlarining foydali xizmatlarini inkor etmayman" [1; 251-252-b.].

O'zbek jadidlarining qarashlari ham mana shu yo'sinda shakllandı va Ovrupo madaniyati ularning asarlarida mahalliy qoloq hayot – ilmdan bebahralikning aksi sifatida talqin etildi.

Professor Nurboy Jabborov jadid adabiyotida Ovrupo madaniyati masalasiga ilmiy baho berar ekan: "Sharq va G'arb madaniyati qiyosiga yuksak umuminsoniy mezonlar asosida yondashish, masalaning tub mohiyatidan, ildizidan kelib chiqib fikr yuritish, Vatan va millat manfaati nuqtayi nazaridan baholash – mutafakkir jadidlar ma'naviy-axloqiy ta'limotining bosh xususiyati" [2; 11-b.] bo'lganini ta'kidlaydi.

Milliy uyg'onish davri adabiyotini Yevropa ma'rifatparvarlik adabiyoti bilan qiyosiy tadqiq etgan olim Ulug'bek Saidov esa bu masalaga quyidagicha yondashadi: "Tatar va Markaziy Osiyo jadidlari – I.Gaspirali, A.Fitrat, M.Behbudiy, Muzaffarzoda, Cho'lpon va boshqalar G'arb ilm-fani, madaniyatini o'rganish asnosida jamiyatni taraqqiy ettirish fikrini ilgari suradilar. Jumladan, Muzaffarzoda millatning iqtisodiy, madaniy, ilm-fani taraqqiyoti uchun o'zga xalqlarning yutuqlaridan foydalanishga tabiiy bir hol deb qaragan edi. Mahmudxo'ja Behbudiy bu borada yanada qat'iy fikr bildiradi va "Ehtiyoji millat" maqolasida: "...dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur", deya yozadi. Jadidlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri Yevropa madaniyati bilan tanishish va dunyodagi boshqa davlat va xalqlar bilan muloqot o'rnatish bo'ldi" [4; 12-13-b.].

Muhokama. Ilg'or jadidlardan biri – Abdulla Avloniy "Mahbublarima bir xitob" musaddasida yozadi:

*Ko'b zamondur yovrupalolarg'a bo'ldung oshno,
Jurmni ne bo'ldi, bizim zulmatda qoldi Osiyo,
Amriqo vahshiylari nuringdin oldilar ziyo,
Qoldimiz biz Amriqo, Oqyonussiyolardan fano,
Ittifoqu ilm, Islom ahlina go'star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol.*

Shoir hamjihatlik va ilmga murojaat etar ekan, millatning ayanchli ahvoliga ularsiz qolishni sabab sifatida ko'rsatadi. Ilmni ko'p vaqtlardan beri "yovrupalular" bilan ekanini,

hattoki Amriqo yovvoyilar ilmdan bahra olayotganini, bu vaqtida Osiyoning zulmatda qolganini tasvirlaydi. Ittifoq va ilmdan islom ahliga jamol ko'rsatishini o'tinadi.

“Biz, millat” she'rida esa garchi Ovrupo lafzini aynan ta'kidlamasa-da, biroq tasvir va tashbehlardan ovrupoliklar nazarda tutilayotganini ilg'ash mushkul emas. Taraqqiysevar millatlar ilm-u hunar uskunalarini qo'lga kiritayotgan chog'da, bizning millat g'ami – riyo uchun chopon olish deya afsus bilan yozadi:

*Tamaddunfeshalikdan o'zgalar ruhi mujassamdu,
Hayota qobil ermas, surati devor – biz, millat.*

*Hama ilm-u hunar asbobini olmaqni istarsa,
Chafon, chalma, riyo sotmoqg'a xo'b tujor – biz, millat.*

*Tafakkur soyasida o'zgalar shahd-u shakar yer-sa,
Tururmiz baqrayib har go'shada bekor – biz, millat.*

*May-u minosini tark aylasa ag'yor, bizlar, oh,
Ichib jomi jaholatdan, hamisha zor – biz, millat.*

*Hama kasb-u kamolot etsa hosil ilm-fan birla,
Shifirguchi, yamoqchi, xayrchi – ko'b xor – biz, millat.*

Shoirning nazdida barcha kamolot asosi – ilm-fan. Bundan boshqa najot yo'q. “O'zgalar”, “hama”, “ag'yor” – lirik qahramonning raqibi, devor misoli harakatdan bebahra millat esa atrofida – dunyoda bo'layotgan ishlardan bebahra.

Nafaqat ijodi, balki hayot tarzi bilan ham taraqqiyparvarligini namoyon etgan Is'hoqxon Ibrat ham mazkur g'oyalarni davom ettirib, “Madaniyat haqida masnaviy”sida madaniyatga oshno kishini jannatda yashayotgandek, hisoblashini bayon etadi. “Kimni madaniy deyish mumkin?” degan savolga “axloqi ilm ila marg'ub” deb javob beradi va taraqqiyotidan namuna olish mumkin bo'lgan shaharlarni sanab o'tadi:

*Madaniy shahar hozir olamda,
O'n ikkidur hisob odamda.*

*Misr, Istanbul, Farish, Berlin,
Lundun va Madrid, Vashulg'itun.*

*Vena, Petergrod ham Tukiyo,
Madaniyatda bo'lg'uvchilar bu.*

*Birisini oti erur Rumo,
Madaniyatni(ng) yeri erur Doniyo.*

Ibrat bu shaharlarda bo'lib, ularning hayoti bilan yaqindan tanishgan, yutuqlarini ona yurti – To'raqo'rg'onda qisman qo'llashga harakat qilgan edi.

Ilm-fan mahsuli – insонning yashashi uchun yaratilgan qulayliklar: temir yo'l, ayeroplan, telefon, qishda issiq, yozda sovuq pechlar, elektr uskunalar, jarrohlik amaliyotlari – hamma-hammasi madaniylik mahsuli ekani Ibrat tomonidan asarlarida ko'p ta'kidlanadi.

Ovrupo madaniyatining ta'sirini jadid shoiri Tavallo ham o'ziga xos tarzda asarlarida kuyladi. Boshqalardan farqli ravishda Tavallo asarlarida Ovrupocha hayot tarzi ham ilm-fan taraqqiyotiga intilish bilan barobar tilga olinadi.

Eng avvalo, Ovrupo madaniyati xususida yozish Tavallo she'riyatida qiyosning imkonini oshiradi.

Muallif Yevropa va o'z yurtining qiyosi vositasida jaholat botqog'iga botayotgan millat qiyofasini ochib beradi: "Shoir jahonning, chunonchi Ovrupo va Amerika xalqlarining asridagi hayotiga nazar tashlaydi. Bir tomonda ilm-fan, texnika yangiliklarini turmushga joriy etib, og'irini yengil, hayotini farovon qilayotgan millatlar, ikkinchi tomonda, Odam Atodan beri kelayotgan, allaqachon eskirib ishdan chiqqan ishlab chiqarish usuli va vositalariga mahkam yopishib, dunyoda shuni so'nggi mo'jizadek ushlab olgan Turkiston. Shoir har ikkisini muqoyasa qiladi. Bu muqoyasa, hajviy mazmun tashiydi, albatta" [3; 87-b]. Shu o'rinda bu muqoyasa jarayonida nafaqat yangi obrazlar tasviriga, qolaversa, she'riyatda yangi leksemalarning paydo bo'lishiga ham guvoh bo'lamiz. G'oyani ifoda etish asnosida o'ziga xos o'zlashma leksika ham paydo bo'ldi.

Toshkandning fayzi asosi tamoshbo bog'ida,

Ne go'zallar sayr etarlar, boqsangiz har yog'ida, –

deydi Tavallo. Bu orqali istirohat bog'lari (park)ning xalq hayotiga ta'sir etishi, mahalliy aholining bu kabi jamoat maskanlarida o'zini nomunosib tutishi orqali madaniyatsizligi, bilimsizligini ko'rsatayotganidan afsuslanadi. Yoxud:

Dedim: "Ahvolingizga Yovro'po, Amriko, Masqovlar,

Taajjub aylayub, hech kulmag'on totor, yo'x, yo'x, yo'x", –

deya millatdoshlariga yuzlanadi. Ya'ni jahon ayvonida biz kabi "afgor" yo'q, bu holdan qutulish uchun munosiblardan ibrat olaylik, degan chaqiriqni asarlariga joylaydi. Bu chorlov "Olamga bir nazar" g'azalida yanada alohida ta'kid ohangiga ega bo'ladi. Ovrupoda odatiy voqealar, kundalik buyumlar safidan o'rin olib bo'lgan "simsiz" so'zlashish (telefon), "zambarak", bitta igna bilan "ming navo" taratuvchi "g'irnomofun", odamni ko'kda parvoz qildiruvchi "ayruplon"ni namuna qilib keltiradi.

Ilm-fanga ishtyoqmandlikda Ovrupodan o'rnak olishga chaqiradi:

Ko'r, Yovro'po ahli nedan, tinmay o'qurlar ilm-u fan,

Ko'krak ochuq, sizlar chafan, inson bo'lomaysiz hanuz.

Millat kelajagi bo'lgan yoshlarga qarata:

Bizlarni Yovro'poda yurguzmayur piyoda,

Ko'krak ochuq yaqoda o'tmasun oy-yilingiz, –

deya ogohlantiradi.

"Yovro'polilar hunari birlan bizlarni(ng) hunarimizning farqi" nomli g'azalida Turkiston farzandlarining orqada qolishiga sabab bo'layotgan illatlar va ularning oqibatlarini qarshilantirish san'ati orqali ta'riflab beradi. Xususan, "zanburak"ka "sobqon", "aftomobil"ga

“Ho‘qand arava”, “ayropilon-u gidropilon”ga “varvarak”, “zobut tovari”ga “bo‘yra, bordon”... Mana shular bugungi Turkistonning “kuchi-qudrati”, ilmsizlik sabab tushgan ahvoli...

“Boshqa millatlar va biz” sarlavhali g‘azalida esa “tarki Vatan aylab” Ovrupoga borishga, “jahon millatlari” kabi “turluk fununlar”ni o‘qish orqali “rivoji millat”ga erishish mumkinligini bayon etadi.

Natijalar. Ovrupoga intilish, uni namuna sifatida ko‘rish orqali jadidlar yoshlarga “Yovro‘po ilmiga rag‘bat qilish” aksar muammolarning ildizi bo‘lgan ilmsizlik dardiga chora ekanligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Tavalloning “Uyonmaz ersa millat...” g‘azalidagi “Ko‘tar boshingni qayril Yovro‘po ilmiga rag‘bat qil” misrasi ham fikrimizga hamohangdir.

Ovruponi ko‘klarga olib chiqqan ilm-fandir, degan xulosaga kelgan shoir:

Riyozat chekmayin ilm fununni yaxshi o‘rganub,

Ko‘r emdi Yovro‘poni, sayr aylar osmon, do‘stum, –

deydi.

Agar tafakkur qilmasak, atrofimizdagi voqealardan ibrat olmasak, Ovrupo kezganning ham foydasi yo‘q. Chunki ibrat olish kishiga rag‘bat beradi, hayotiy maqsadlarini mustahkamlaydi. Agar ong bunday islohga tayyor bo‘lmasa-chi? Unda Yovro‘po yoxud undan narini ham kezgandan foya yo‘q, degan xulosaga keladi:

Qo‘sнимиздин ibrat olmaz ersamiz bizlarga bil,

G‘арбдин mashriqни kezган Yovro‘polardin na sud?

Yana bir jadid adibi Siddiqiy-Ajziy esa Ovrupo erishgan ilm-fan cho‘qqilarini pisand etmaydigan, olamda nimalar ro‘y berayotganini anglay olmaydigan, bu ham yetmagandek ilm-fan ixtiolaridan foydalanishni kufr deb baholaydigan millatdoshlari haqida kinoya uslubida yaratilgan “Faxriya” muxammasida shunday yozadi:

Aftomobillar, tramvaylar, qaro vopurlar,

Barchasi behuda shaylardur sarosar dardisar,

Kufr o‘lmasmi bu bid‘atlarg‘a solmaqliq nazar?

Hikmati jindorlik bergay biza g‘aybi xabar,

Mo‘miniz, hikmat bizimdur, bizda hikmat vordur.

Abdurauf Fitratning “Chin sevish” pyesasida Ovrupo madaniyatiga doir qarashlar tubdan o‘zgarganini ko‘rshimiz mumkin. Ilm-fan, zamon yangiliklaridan xabardorlik hamisha chin insonlik garovi bo‘la olmasligi qahramon taqdiri orqali ochib beriladi. Karimbaxsh tilidan aytilgan quyidagi so‘zlar jadidlarning qarashlarini ham ifoda etadi: “Ovrupoda bilim bor, lekin insof yo‘q. Ovruponing bilimi qoplonning tishi, tirnog‘i kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib, yemak to‘g‘risida ko‘p ish ko‘rmishdir...” “...Ovrupoda o‘qimoq Ovrupolilarni insofli, adolatli deb maqtamoq uchun emas, ulardan o‘zimizni saqlamoq, tishli-tirnoqli bo‘lish uchun kerakdir”.

Xulosalar. Jadidlar Ovrupo madaniyatiga intilish orqali zamondoshlariga ilm-fanning natijalarini ko‘rsatishni niyat qilishgan edi. Shuning uchun ularning asarlarida zamonaviy ixtiolar: gazeta, jurnal, teatr, telefon, tramvay, aeroplan-u elektr uskunalar Ovrupo bilan bog‘liq holda talqin etildi. Asarlarida ilg‘or fikrli qahramonlarini tasvirlashda Ovrupo ta’sirini aks ettirishga harakat qilishdi: “Padarkush” pyesasida “domla – yangi fikrlik bir mullo”, “ziyoli – (Ovro‘po libosig‘a) o‘ruscha o‘qug‘on, millatchi musulmon”, Avloniyning “Biz va siz” dramasidagi Kamol “Yevrupoda o‘qub kelg‘on yigit”...

Avval Sharq ilm-fan beshigi bo'lgan bo'lsa, bu maqomga endi G'arb ega chiqayotganini asarlarida ko'p ta'kidlashdi. Siddiqiy-Ajziyning "Orzu va xayol" maqolasida keltirilgan: "Ey musulmonlar! Xobi g'aflat va jaholatdan uyg'oningizki, maorif oftobi Mag'ribdan chiqa boshladi" tarzidagi fikr aksariyat jadidlarning qarashlarini ifoda eta oldi.

Ovruponi ifoda etish uchun adiblar tomonidan "o'zgalar", "g'ayr", "hama el" kabi so'zlardan foydalanilgan o'rinalar ham uchraydi. Eng asosiy e'tibor taraqqiy etgan Yevropa va tanazzul iskanjasidagi Turkistonni o'zaro qiyoslashga, shu orqali millatdoshlarni uyg'otishga qaratildi. Ayni paytda jaholat iskanjasida taraqqiyotdan ortda qolgan millat qiyofasi butun murakkabligi bilan ochib berildi. Ovrupo odamlari obrazi orqali ilm-ma'rifat, intellektual salohiyat va madaniyat bilan bog'liq orzular o'ziga xos tarzda ifodalandi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Gasprali I. (2022) Dorur-rohat musulmonlari [Matn]/Ismoil Gasprali. Toshkent: Akademnashr.
2. Жабборов Н. (2017) Фитрат ижодида Шарқ ва Ғарб маданияти талқини. "Истиқлол ва Фитрат" мавзусидаги анъанавий республика илмий-амалий анжумани материаллари.
3. Қосимов Б., Долимов У. (2003) Ўзбек миллий уйғониш адабиёти. Toshkent. Ma'naviyat.
4. Сайдов У. (2002) Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида комил инсон масаласи (Европа маърифатчилик адабиёти билан қиёсий ўрганиш тажрибасидан). Фил.фан.номз. дисс. Тошкент.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулити чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).